SURXONDARYO VILOYATI QIZIRIQ TUMANI HOKIMINING

QARORI

2025-yil 31-oktabr | 202-8-113-Q/25 | Qiziriq tuman hokimligi

Qiziriq tumanidagi aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini 2026-yilda ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish to‘g‘risida

“Aholi bandligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 9-bobi hamda Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga asosan 2026-yil uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Qiziriq tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Quyidagilar:

a) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030 yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2025-yil 23-iyundagi PF–98-son Farmoniga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish vakolatlari Xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga o‘tkazilganligi;

b) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mehnat munosabatlari va kasbga tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda ish beruvchilarni rag‘batlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 4-avgustdagi PF-126-son Farmoniga asosan:

xo‘jalik yurituvchi subyektlar faqat nogironligi bo‘lgan shaxslar, oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar, kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari, muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim shaxslar, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar uchun ish o‘rinlarining majburiy

zaxiralari shakllantirilishi, bunda majburiy zaxiralash xodimlar umumiy sonining 3 foizidan oshmasligi hamda xodimlari soni 100 nafardan ortiq bo‘lgan tashkilotlarga nisbatan qo‘llanilishi;

byudjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar faqat nogironligi bo‘lgan shaxslar, oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar, kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari, muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim shaxslar, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan hamda odam savdosidan jabrlangan shaxslar uchun ish o‘rinlarining majburiy zaxiralari shakllantirilishi, bunda majburiy zaxiralash xodimlar umumiy sonining 7 foizidan oshmasligi hamda xodimlari soni 20 nafardan ortiq bo‘lgan tashkilotlarga nisbatan tatbiq etilishi belgilanganligi rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qiziriq tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi hamda Qiziriq tuman “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazining Qiziriq tumani hududidagi tashkilotlar bo‘yicha 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ish o‘rinlarini belgilash to‘g‘risidagi **quyidagi** takliflari ma’qullansin:

xodimlar soni 20 nafardan ortiq bo‘lgan davlat tashkilotlarida majburiy zaxiralanadigan ish o‘rinlari soni xodimlar umumiy sonining yetti foizidan oshmagan miqdorda hamda xodimlar soni 100 nafardan ortiq bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda (davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar bundan mustasno) majburiy zaxiralanadigan ish o‘rinlari soni xodimlar umumiy sonining uch foizidan oshmagan miqdorida kelgusi yil uchun 88 ta ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish, jumladan:

nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun 43.1 foiz (38 kishi);

oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar uchun 1.1 foiz (1 kishi);

kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari uchun 48.9 foiz (43 kishi);

muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar uchun 2.3 foiz (2 kishi);

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslar uchun 3.4 foiz (3 kishi);

odam savdosidan jabrlangan shaxslar uchun 1.1 foiz (1 kishi) miqdorida ish o‘rinlarining majburiy zaxiralari shakllantiriladi.

3. 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish maqsadida **quyidagilar:**

davlat tashkilotlari (byudjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar) tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli ro‘yxati **1-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

4. Korxonalar, tashkilotlar va muassasalar rahbarlari:

zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlari umumiy sonining kamida yigirma besh foizi miqdorida zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining tayyorligini yil boshlanishidan oldin

o‘n kundan kechiktirmay ta’minlashi, shuningdek, bu haqda yil boshlangunga qadar Qiziriq tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limini xabardor qiladi;

ish o‘rinlarining qolgan qismini zaxiraga qo‘yish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan kalendar yilning birinchi choragi mobaynida ta’minlashi, bu haqda Qiziriq tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limini birinchi chorak tamom bo‘lganidan so‘ng, 10 kundan kechikmay xabardor qiladi;

ishga joylashtirish to‘g‘risida Qiziriq tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 5-sanasiga qadar axborot taqdim etadi.

Zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarini saqlash shartlari O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining 40-moddasiga muvofiq belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholini tadbirkorlikka jalb qilish va bandligini ta’minlash uchun moliyaviy yordamlar ajratish tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 14-fevraldagi PQ-64-son qaroriga muvofiq aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalaridan bo‘lgan shaxslarni ish o‘rinlarining belgilangan eng kam sonidan ortiq miqdorda ishga qabul qilish uchun ish beruvchilarga – har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida subsidiya mablag‘larini to‘lab berilsin.

6. O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonuni 3-, 13-, 34-, 38-, 39-, 40-, 41-moddalariga asosan aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalariga eng kam miqdordagi ish joylarini yaratish yuzasidan qabul qilingan mazkur qarorni bajarmaganlik uchun ish beruvchilar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Nizomning 21-bandi, 2-qismiga asosan, muhtojlar uchun ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish bo‘yicha Qiziriq tumani Kengashining qarori bajarilmaganligi uchun jarima to‘lash tashkilotni zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan sonini yaratish bo‘yicha majburiyatdan ozod qilmaydi.

8. Qiziriq tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (SH.Abbosov):

besh kun muddatda ushbu qaror nusxasini 1 va 2-ilovalarda ko‘rsatilgan tashkilotlar rahbarlarining e’tiboriga yetkazsin va ushbu qaror bajarilishi ustidan nazoratni ta’minlasin.

aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash bo‘yicha xalq deputatlari Qiziriq tumani Kengashining ushbu qarori bajarilmaganda, shuningdek, ularni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun tashkilotlarning mansabdor shaxslariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma’muriy javobgarlikka tortish ta’minlansin.

9. Mazkur qaror ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinsin hamda hokimlikning rasmiy veb- saytiga joylashtirilsin.

10. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari U.Panjiyev zimmasiga yuklatilsin.

11. Mazkur qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Tuman hokimi **SH.Y.Allamurotov**

Qiziriq tumani hokimining
2025-yil 31-oktabrdagi
202-8-113-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Qiziriq tumanida 2026 yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun davlat tashkilotlari (byudjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar) tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli

RO‘YXATI

T/r	Tuman (shahar) nomi	Tashkilot nomi	Tashkilotning STIRi	Shtat jadvali bo‘yicha xodimlarning umumiy soni	shundan, nogironligi bo‘lgan shaxslar soni	Kelgusi yil uchun zaxiraga qo‘yladigan ish o‘rinlari soni	shu jumladan: nogironligi bo‘lgan shaxslar	oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar	Kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari	muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar	jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslar	odam savdosidan jabrlangan shaxslar
		JAMI:		**5047**	**102**	**88**	**38**	**1**	**43**	**2**	**3**	**1**
1	Qiziriq tumani	QIZIRIQ TUMANI VETERINARIYA VA CHORVACHILIKNI RIVOJLANTIRISH BO'LIMI	200492207	30	1	1	0	0	0	0	1	0

2	Qiziriq tumani	QIZIRIQ TUMANI TIBBIYOT BIRLASHMASI	200492222	1406	29	22	3	1	14	2	1	1
3	Qiziriq tumani	"QIZIRIQ TUMAN POLITEXNIKUMI" DAVLAT MUASSASASI	200492254	88	5	1	0	0	1	0	0	0
4	Qiziriq tumani	"QIZIRIQ TUMAN YO`LLARDAN FOYDALANISH KORXONASI" DAVLAT MUASSASASI	200492451	60	2	2	0	0	1	0	1	0
5	Qiziriq tumani	"SANITARIYA-EPIDEMIOLOGIK OSOYISHTALIK VA JAMOAT SALOMATLIGI XIZMATI QIZIRIQ TUMAN BO`LIMI" DAVLAT MUASSASASI	201391309	64	2	1	0	0	1	0	0	0
6	Qiziriq tumani	"QIZIRIQ TUMAN OBODONLASHTIRISH BOSHQARMASI" DAVLAT MUASSASASI	202029224	185	4	2	2	0	0	0	0	0
7	Qiziriq tumani	1-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	203208769	85	2	1	1	0	0	0	0	0
8	Qiziriq tumani	2-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI	203208776	107	1	1	1	0	0	0	0	0

9	Qiziriq tumani	6-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI	203208784	67	1	1	1	0	0	0	0	0
10	Qiziriq tumani	10-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	203208791	60	0	1	1	0	0	0	0	0
11	Qiziriq tumani	"12-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	203208809	71	2	1	0	0	1	0	0	0
12	Qiziriq tumani	14-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	203208816	96	1	1	1	0	0	0	0	0
13	Qiziriq tumani	QIZIRIQ TUMANI 16-SONLI UMUMTA`LIM MAKTABI NEGIZIDA TASHKIL ETILGAN INGLIZ TILI FANIGA IXTISOSLASHTIRILGAN DAVLAT UMUMTA`LIM MAKTABI	203208824	78	0	1	1	0	0	0	0	0
14	Qiziriq tumani	17-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	203208831	94	3	1	0	0	1	0	0	0
15	Qiziriq tumani	18-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	203208848	98	0	1	1	0	0	0	0	0
16	Qiziriq tumani	"30-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	203208855	91	4	1	1	0	0	0	0	0

17	Qiziriq tumani	36-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	203208863	103	4	1	0	0	1	0	0	0
18	Qiziriq tumani	11-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	203502958	65	0	1	1	0	0	0	0	0
19	Qiziriq tumani	"15-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	203502965	66	2	1	0	0	1	0	0	0
20	Qiziriq tumani	"3-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	203502973	71	3	1	0	0	1	0	0	0
21	Qiziriq tumani	20-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	203512312	58	1	1	1	0	0	0	0	0
22	Qiziriq tumani	43-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206860259	39	0	1	1	0	0	0	0	0
23	Qiziriq tumani	33-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206860281	43	1	1	0	0	1	0	0	0
24	Qiziriq tumani	22-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206860306	64	0	1	1	0	0	0	0	0
25	Qiziriq tumani	"41-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTAB" DAVLAT MUASSASASI	206860314	50	2	1	0	0	1	0	0	0
26	Qiziriq tumani	7-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206860321	57	1	1	1	0	0	0	0	0

27	Qiziriq tumani	19-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206860377	74	1	1	1	0	0	0	0	0
28	Qiziriq tumani	"40-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206860384	51	0	1	1	0	0	0	0	0
29	Qiziriq tumani	23-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI	206860392	57	1	1	1	0	0	0	0	0
30	Qiziriq tumani	"47-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206861716	33	0	1	1	0	0	0	0	0
31	Qiziriq tumani	"5-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206861724	59	1	1	1	0	0	0	0	0
32	Qiziriq tumani	29-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206861731	47	2	1	0	0	1	0	0	0
33	Qiziriq tumani	"21-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206861748	50	1	1	1	0	0	0	0	0
34	Qiziriq tumani	9-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206862334	62	1	1	1	0	0	0	0	0
35	Qiziriq tumani	13-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206862342	59	1	1	1	0	0	0	0	0

36	Qiziriq tumani	"25-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206862359	41	1	1	0	0	1	0	0	0
37	Qiziriq tumani	"44-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206863831	52	2	1	0	0	1	0	0	0
38	Qiziriq tumani	32-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206863848	50	2	1	0	0	1	0	0	0
39	Qiziriq tumani	"31-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206863855	47	1	1	0	0	1	0	0	0
40	Qiziriq tumani	4-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI	206865504	35	1	1	0	0	1	0	0	0
41	Qiziriq tumani	46-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206865512	60	0	1	1	0	0	0	0	0
42	Qiziriq tumani	45-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206865529	59	3	1	0	0	1	0	0	0
43	Qiziriq tumani	42-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206865536	49	0	1	1	0	0	0	0	0
44	Qiziriq tumani	" 39-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206866320	35	0	1	1	0	0	0	0	0

45	Qiziriq tumani	"6-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207034191	34	1	1	0	0	1	0	0	0
46	Qiziriq tumani	"17-SONLI MAKTABGACHA TA`LIM MUASSASASI" DAVLAT MUASSASASI	207064654	23	0	1	1	0	0	0	0	0
47	Qiziriq tumani	"20-SONLI MAKTABGACHA TA`LIM MUASSASASI" DAVLAT MUASSASASI	207064661	35	1	1	0	0	1	0	0	0
48	Qiziriq tumani	"8-SONLI MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207064678	34	1	1	0	0	1	0	0	0
49	Qiziriq tumani	"11-SONLI UMUMIY TIPDAGI DAVLAT MAKTAKGACHA TA'LIM MUASSASASI" DAVLAT MUASSASASI	207064685	49	1	1	0	0	1	0	0	0

50	Qiziriq tumani	"2-SONLI MAKTABGACHA TA`LIM MUASSASASI" DAVLAT MUASSASASI	207064701	48	0	1	1	0	0	0	0	0
51	Qiziriq tumani	"10-SONLI MAKTABGACHA TA`LIM MUASSASASI" DAVLAT MUASSASASI	207064718	46	1	1	0	0	1	0	0	0
52	Qiziriq tumani	"5-SONLI MAKTABGACHA TA’LIM MUASSASASI" DAVLAT MUASSASASI	207064836	36	1	1	0	0	1	0	0	0
53	Qiziriq tumani	"7-SONLI MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI" DAVLAT MUASSASASI	207064851	31	0	1	1	0	0	0	0	0
54	Qiziriq tumani	"19-SONLI MAKTABGACHA TA`LIM MUASSASASI" DAVLAT MUASSASASI	207064908	33	0	1	1	0	0	0	0	0
55	Qiziriq tumani	"15-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI" DAVLAT	207064915	35	1	1	0	0	1	0	0	0

		MUASSASASI										
56	Qiziriq tumani	"12-SONLI MAKTABGACHA TA`LIM MUASSASASI" DAVLAT MUASSASASI	207065028	50	1	1	1	0	0	0	0	0
57	Qiziriq tumani	"4-SONLI MAKTABGACHA TA`LIM MUASSASASI" DAVLAT MUASSASASI	207065430	45	1	1	0	0	1	0	0	0
58	Qiziriq tumani	"QIZIRIQ TUMAN BARKAMOL AVLOD BOLALAR MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	207122479	53	0	1	1	0	0	0	0	0
59	Qiziriq tumani	XALQ TA`LIMI BO`LIMIGA QARASHLI 35-SONLI UMUMTA`LIM MAKTABI	306671364	53	0	1	1	0	0	0	0	0
60	Qiziriq tumani	"QIZIRIQ TUMANI MAKTABGACHA TA`LIM BO`LIMI 9 - SONLI" DAVLAT MUASSASASI	308003037	44	1	1	0	0	1	0	0	0

61	Qiziriq tumani	"QIZIRIQ TUMANI MAKTABGACHA TA`LIM BO`LIMI TASARRUFIDAGI 21-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	309170004	36	1	1	0	0	1	0	0	0
62	Qiziriq tumani	"MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI HUZURIDAGI IXTISOSLASHTIRILGAN TA`LIM MUASSASALARI AGENTLIGI TIZIMIDAGI QIZIRIQ TUMAN IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTAB" DAVLAT MUASSASASI	309860181	48	0	1	1	0	0	0	0	0
63	Qiziriq tumani	"QIZIRIQ TUMANI MAKTABGACHA TA'LIM BO'LIMI TASARRUFIDAGI 14-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	309911014	22	0	1	1	0	0	0	0	0

64	Qiziriq tumani	"QIZIRIQ TUMANI MAKTABGACHA TA`LIM BO`LIMI TASARRUFIDAGI 23-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	309991050	41	1	1	0	0	1	0	0	0
65	Qiziriq tumani	"QIZIRIQ TUMANI MAKTABGACHA TA`LIM BO`LIMI TASARRUFIDAGI 22-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	310030432	35	1	1	0	0	1	0	0	0